

**MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI
TARAQQIYOTINING ENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISHADOLATLI IJTIMOIY
SYOSAT YURITISH , INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH**

Kojamuratova Aygul Kutlimurat qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridik fakultetining 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotining eng asosiy va zarur shartiga aylantirish hamda Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlanirish haqida so'z yuritilgan. Respublikada adolat va qonun ustuvorligi ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalinin rivojlanirishga takliflar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shaxsiy fikrlari bilan yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *adolat, qonun ustuvorligi, taraqqiyot, advokatura instituti, "xabeas korpus" instituti.*

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olar ekan, adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik xuquqiy davlat qurishni o'z oldiga pirovard maqsad qilib qo'ydi. Bu oliy maqsad yo'lida shu kungacha ko'pdan-ko'p ishlar amalga oshirildi. Ma'lumki, adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik xuquqiy davlatni Konstituciya va qonun ustunligiga erishmay, ularni ham me'yoriy xujjalarda, ham amalda ta'minlamay turib qurib bo'lmaydi.

Konstituciya va qonunlarning ustuvorligi principi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-xuquqiy xujjalalar Konstituciya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: " Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi". Demak, qayerda qonun hukmronlik qilsa, o'sha yerda erkinlik, demokratiya bo'ladi.

Binobarin, davlatimiz Asosiy Qonuni xalqimizning milliy o'ziga xosligi, urf-odat va an'analari, o'zbek davlatchiligi rivojidagi tarixiy tajribalarimiz, xalqaro xuquqning umume'tirof etilgan qoidalari, rivojlangan demokratik davlatlarning ilg'or tajribalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizning amaldagi Konstituciysi sof demokratik ruxda yaratilgan bo'lib, u davlat huquqiy tizimining poydevoridir. Shuning uchun ham Qomusimiz insonlar qonun uchun emas, qonunlar insonlar uchun xizmat qilmog'i lozim degan principni o'zida mujassam etadi.

Umuman olganda, demokratiya Konstituciyaning asosiy principi hisoblanadi. Unda insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish nazarda tutilgan. Chunki xalqning turmush tajribasiga, yurtimiz aholisining milliy va madaniy an'analariga, barcha ijtimoiy guruxlar va qatlamlarning manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya principiarini

qaror toptirish yangi demokratik adolatli jamiyat qurishda o'ta muhim siyosiy ahamiyatga molik ishdir. Zotan, " Demokratiya hamma joyda bir xil. Uning umumiyl tamoyillari hamma uchun tushunarli: bu-demokratiyaning ajralmas qismi bo'lgan xalq xokimiyati,xalqning hoxish-irodasi va ochiq,erkin saylovlardir. Bu - oxir-oqibatda har qanday demokratiyaning eng yuqori pog'onasi bo'lgan fuqarolik jamiyatidir". Aslida qonunga og'ishmay itoat etilgan jamiyatda gina demokratiya qaror topadi. Zero, qonun-huquqiy davlatning poydevoridir,qonuniylik va huquq-tartibot esa uning asosiy principi va zarur shartidir. Shuning uchun ham huquqiy davlatning eng oliy so'zi ham,obro'-martabasi ham, qalbi, tan-joni ham, xullas tirikligi ham qonundir. Boshqacha aytganda,xuquqiy davlatning quroli xam,ximoyasi xam, ku'zi xam, su'zi ham,qalqoni xam qonundir. Darhaqiqat,huquqiy davlatda birinchi navbatda davlatning o'zi, uning barcha organlari,mansabdar shaxslar ham qonunga itoat etishlari majburiyligi Asosiy Qonunimizda belgilab qo'yilgani aslo bejiz emas.

Bundan besh yil muqaddam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoyishi qabul qilindi.

Shunga muvofiq ravishda 2017–2021 yillarda mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqning osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rinn egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Harakatlar strategiyasining uzviy davomi o'laroq, O'zbekistonning kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan eng muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi (2022 yil 28 yanvardagi) PF-60-son Farmoni qabul qilindi.

Bu bilan, kelgusi 5 yilga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

«Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi besh yil avval qabul qilingan Harakatlar strategiyasidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi»

1- Harakatlar strategiyasidan farqli o'laroq, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan va 2022 yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan 398 ta chora-tadbirni o'z ichiga olgan.

2-Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda Harakatlar strategiyasiga nisbatan mamlakatimiz aholisining ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Bu bilan hujjatning yanada xalqchilligi ta'minlandi

3- Ushbu dasturiy hujjatda yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendenciyalari qanday bo'lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

4- Taraqqiyot strategiyasini ijro qilish bo'yicha mexanizm takomillashtirildi.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoevning «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni bilan strategiyani amalga oshirish bo'yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlandi.

5- Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani ham e'tiborga molik.

6- Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning ilk yili – 2022 yilda amalga oshirilishi belgilab olingan vazifalarga ajratilayotgan mablag'lar miqdorining ham bir necha barobar ortganligini ko'rish mumkin.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasining "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" yu'nalishi 8ta maqsadni o'z ichiga oladi. Ya'ni:

1-maqsad: Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash.

Xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, mulkiy, shu jumladan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni so'zsiz ta'minlash.

2-maqsad: Qonun ustuvorligi va konstituciyyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash.

Mahkumlar va jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta'minot va xalqaro e'tirof etilgan boshqa huquqlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegraciyasiga ko'maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo'nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish.

Jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni iyo etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish.

3-maqsad: Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish.

«Xabeas korpus» institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish.

Sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjalarni tizimlashtirish ishlarini olib borish.

4-maqsad: Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.

Huquqbazarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.

5-maqsad: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish.

Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish.

6-maqсад: Sud va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash.

Sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

7--maqsad: Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish.

Bepul huquqiy yordam ko'rsatish ko'lamenti kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va «yagona darcha» tamoyili asosida foydalanishni ta'minlash.

8-maqсад: Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.

Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyatini institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish.

Jamiyatda insonning yuksak maqomini ifodalovchi uning qadr-qimmati - umuminsoniy qadriyatdir. Jamiyatda shaxsning yuksak qadr-qimmati e'tirof etilmas va ta'minlanmas ekan, ye'lon qilingan huquq va erkinliklar ku'p jixatdan o'zinig insoniy asoslarni yo'qotadi, alohida har bir inson va uning amaliy hayotiga tatbiqan olganda, quruq gapday bo'lib qoladi. Aslida insonning asosiy xuquq va erkinliklari uning umumi yuksak maqomi, qadr-qimmati xosilasidir. Shuning uchun inson qadr-qimmatini himoya qilish katta ahamiyatga ega.

Tabiiyki, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari jamiyat xayotidan mustaxkam u'rin olgan sudning mavqeい bilan kafolatlanadi. Xar bir shaxs o'z xuquq va erkinliklarini odil va xolis sud orqali ximoya qilish imkoniyatiga ega bu'lди. Bu esa jinoyat protsessi shakliga bu'lgan inson tasavvurining va umuman insoniyat xuquqiy madaniyatining yuksak darajaga ko'tarilganligini anglatadi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, tortishuv-sudlov yurituvining demokratik principi bo'lib, unga binoan, ishning muhokamasi taraflarning bahslari shaklida amalga oshiriladi.

Konstituciya butun huquqiy tizim va O'zbekiston Respublikasi barcha qonunlarining tiklanishida g'oyat katta ahamiyat kasb etdi. Zero, busiz olg'a siljishi amri-maxol bo'lib qolardi.

Asosiy Qonunimiz ishi qoidalari sud tizimi, O'zbekiston hukumati tu'g'risidagi , referendum, vakillik organlariga saylovlari, fuqarolarning saylov xuquqlari kafolatlari, maxalliy uzini-uzi boshqarish asoslari xamda xalq xokimiyatining ayrim institutlari va shakllarini mustaxkamlovchi boshqa qonun xujjatlari tug'risidagi konstitutsiyaviy qonunlarga faol tatbiq yetilmogda. Bu qonunlar ijtimoiy xayotni demokratlishtirishda , konstituciyyaviy huquq-tartibotni shakllantirishda muhim hisoblanadi, qonunchilikning boshqa manbalari ustidan Konstituciyaning ustunligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, Konstituciya va qonun ustunligiga asoslanib faoliyat ko'rsatadigan jamiyat va davlatda yashaydigan inson uzini chindan xam baxtli sanashi mumkin. Chunki

bunday jamiyat va davlatni har bir inson o'zinig birdan bir suyanchig'i , posboni, najot qal'asi deb biladi va hurmat qiladi. Zotan, qonun huquqiy davlatning poydevori bo'lsa, qonuniylik uning asosiy principi, mavjudligi shartidir. Aksincha, fuqarolari qonunni pisand qilmaydigan, qonunlar, axloqiy normalar buziladigan davlat huquqiy davlat bo'la olmaydi. Binobarin, qonunga hurmat-bu, avvalo , o'z xalqi va Vataniga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtirom belgisidir.

Darhaqiqat, qonuniylik xam demokratiya, xuquq-tartibot va boshqa tushunchalar kabi umuminsoniy tushunchadir. Ayni chog'da "qonuniylik" tushunchasining uzi umuminsoniy tasavvurda qonunlarga kuyilmaydi, garchi juda muxim bulsa-da, uning yagona talabi xisoblanmaydi. Qonuniylikning umuminsoniy ma'nodagi xaqiqiy vazifasi chinakam xuquqiy qonunlarga nisbatan namoyon buladi. Shuning uchun xam xuquqiy jamiyatda "qonuniylik" tushunchasini rasmiy qonunlarga munosabat bilangina bog'lab bulmaydi. Qonunning legitmligi-umuminsoniy tushunchadagi chinakam qonuniylik asosidir.

Shuni alohida qayd yetish joizki, totalitar rejimlarda qonuniylik eng sodda ko'rinishda gavdalanadi. Demokratik rejim sharoitlarida esa, u o'zining barcha jihatlariga ega bo'lib, fuqarolik jamiyatiga xos aloxida, siyosiy-yuridik xodisa sifatida xuquqiy qonuniylik ko'rinishida maydonga chiqadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Konstituciya kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigida asosiy qonunga o'zgartirishlar kiritishni taklif qildi. U inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizim samarasini oshirish maqsadida Konstitutsiyada bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironlar, keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish masalalari ham o'z aksini topishi kerakligini ta'kidladi.

U butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham davom etayotgan koronavirus pandemiyasi sababli bu yil ham Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimlarni keng miqyosda o'tkazilmasligini ma'lum qildi. «Lekin bu bayram qalblarimizga quvonch va shukuh bag'ishlamoqda», — deya qo'shimcha qildi prezident.

«Albatta, Konstitutsiyani yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda biz yetti marta emas, yetmish marta o'ylab, xalqimiz bilan har tomonlama maslahatlashgan holda, yurtimiz va jahondagi ilg'or tajribalarni chuqr o'rganib, aniq qaror qabul qilishimiz zarur», — deyiladi prezident tabrigida.

Prezident bu borada Oliy Majlis palatalari, deputat va senatorlar, nuroniyalar, xotinqizlar, yoshlар jamoatchiligi, huquqshunos va siyosatshunos olimlar, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyorilari, butun xalq bu masalada o'zining aniq fikr va qarashlarini bildirishiga ishonishini aytdi.

Shavkat Mirziyoyev davlat va siyosat arbobi Uinston Cherhillning quyidagi gapini iqtibos keltirdi: «Yaxshi bo'lish uchun — o'zgarish kerak, yaxshilarning yaxshisi bo'lish uchun esa yanada ko'proq o'zgarish kerak»

Huquqiy davlatning hamda erkin fuqarolik jamiyatining o'ziga xos muxim xususiyatlaridan biri-huquqning oliy darajadagi hukmronligidir. Chunki, huquqiy davlatda hamma narsa , har qanday masala qonunlar, huquqiy me'yorlar asosida adolatdi hal etiladi.

Qonun jamiyat va davlat hayotidagi eng muxim munosabatlarni tartibga solib turadi. Eng muximi-huquqiy davlat huquqiy qonun asosida faoliyat ko'rsatadigan , qonun asosida yashaydigan, huquqiy qonun belgilab bergan chiziqdan har qanday holatda xam chiqmaydigan davlatdir. Shu sababli huquqiy davlatning negizi, uning poydevori-qonun, qonuniylikdir.

Ayni paytda xuquq-tartibot –ro'yubga chiqqan qonuniylikdir. Bu-huquqiy tartibga solishning yakuni, uning ro'yobga chiqqan maqsadidir. Huquq-tartibotning sobit qadamliligi, uning barqarorligi va buzilmasligi rasmiy qonuniylik bilan yemas, balki haqiqiy qonuniylik bilan ta'minlanadi. O'z navbatida, huquq-tartibot qonun ijodkorligi faoliyatining mazmunini belgilab beradi, qonunlarning xuquqiy xususiyatini shart qilib quyadi. Shuning uchun xam jamiyatda qonuniylikning ro'yobga chiqarilishiga ko'ra huquq-tartibotning ahvoli to'g'risida hukm yuritish mumkin bo'ladi. Huquq-tartibot pirovard natijada butun davlat mexanizmining huquqiy vositalar yordamida ijtimoiy xayotga ta'sirining natijasi (maxsuli xisoblanadi). Shuni xam aytish kerakki, faqat xuquqiy davlat mexanizmi amal qilish sharoitida chinakam xalqchil, adolatli xuquq-tartibot vujudga keladi.

Umuman olganda , huquq-tartibot fuqarolar, ularning birlashmalari , shuningdek, davlat organlari yuridik faoliyatining koplab shakllaridan tarkib topadi. Tor fikrli kishigina huquq-tartibotni ko'proq faqat davlatning huquqni ximoya qilish organlarining faoliyati natijalari bilan bog'laydi. Zero, chinakam xalqchil davlat huquqbazarliklarga qarshi kurashga emas, balki o'z fuqarolari huquqiy xatti-xarakat qilishlari uchun xamrox buladigan sharoit yaratishga kuproq ye'tibor beradi. Aslida kishilar qanday sharoitda xuquqiy xatti-xarakat qilishlari tug'risidagi masada bevosita xuquq-tartibotning xolatiga borib taqaladi. Chunki jamiyat va davlat ko'proq huquqiy xatti-xarakat sodir bo'lismidan manfaatdordir. Bu xol xuquqqa zid xatti-xarakatlar miqdori kamayishiga , xuquq buzilishiga qarshi ishni tashkil yetishga davlat xarajatlari pasayishiga olib kelishi shubxasiz. Ayniqsa, jamiyat tomonidan yuklanadigan majburiyatlar va talablar insonga tartibga solingen muzitda yashash va o'zini ushbu ijtimoiy tartibot doirasida bir qadar qulay his etish imkonini beradi.

Darhaqiqat, Konstituciya-davlatimizdagi huquqning bosh manbai. Konstituciya turli qonunchilik sohalarining mushtarakligini, bir butunligini va o'zaro muvofiqligini, boshlang'ich principlarning umumiyligini ta'minlaydi. Shu bois u butun huquq tizimiga batartiblik va barqarorlik baxsh yetadi. Shu bois Konstituciya va qonunlar xar bir fuqaro uchun, xar bir huquq soxibi uchun eng oliy qadriyat, mo'tabar va muqaddasdir.

Xulosa tariqasida shuni aytish lozimki, Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarni to'laqonli amalga oshirishda barchamizdan mustahkam iroda va qat'iy intizom, bor imkoniyatlarni to'la safarbar qilish talab etiladi. Albatta, bunda har birimiz faol bo'lismiz, bir kuch, bir qudrat bo'lib Yangi O'zbekistonni barpo etishda o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. Hammamiz bir kuch, bir qudrat bo'lib xalqimizga xizmat qilishimiz kerak»